


IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK



2023- yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi



Dastlabki ma'lumotlar


➤ 2023- yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi 66,8 % ni tashkil etdi.

➤ Kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga 9,5 birlikni tashkil qildi.

➤ 2023- yilning yanvar-iyunida 2 260 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 32,6 foizga kam.



2023- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 42,2 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 7,4 ta, sanoatda 6,8 ta, qurilishda 6,8 ta, yashash va ovqatlanishda 4,1 ta, tashish va saqlashda 4,8 ta tashkil etilgan.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2022- y.	2023- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	37 615	24 240	-13 375,0
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	3 354	2 260	-1 094,0
<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushlari:</i>				
YAHM	%	66,4	66,8	0,4
Sanoat	%	21,8	23,3	1,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,6	98,2	-0,4
Investitsiya	%	57,3	70,2	12,9
Qurilish	%	97,0	98,2	1,2
Chakana savdo	%	93,2	92,9	-0,3
Xizmatlar	%	66,7	65,4	-1,3
Yuk tashish	%	94,7	95,4	0,7
Yuk aylanmasi	%	70,2	82,1	11,9
Yo'lovchi tashish	%	98,0	96,8	-1,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,8	94,2	-2,6
Eksport	%	39,2	32,3	-6,9
Import	%	9,8	14,0	4,2



2023- yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da

**YAHM
66,8%**

**Savdo
92,9%**

**Sanoat
23,3%**

**Qurilish
98,2%**

**Investitsiya
70,2%**

**Eksport
32,3%**

**Xizmatlar
65,4%**


**Import
14,0%**

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	(+;-)
Andijon viloyati	3 354	2 260	-1 094
<i>shaharlar:</i>			
Andijon sh.	571	532	-39
Xonobod sh.	45	20	-25
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	166	132	-34
Andijon	286	240	-46
Baliqchi	333	136	-197
Bo'ston	114	93	-21
Buloqboshi	104	70	-34
Jalaquduq	146	69	-77
Izboskan	208	123	-85
Ulug'nor	61	69	8
Qo'rg'ontepa	198	130	-68
Asaka	264	171	-93
Marhamat	169	136	-33
Shahrixon	280	134	-146
Paxtaobod	210	96	-114
Xo'jaobod	199	109	-90



2023- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri – 23,5 % Andijon tumani 10,6 %, Asaka tumani – 7,6 %, Baliqchi tumani – 6,0 %, Marhamat tumani – 6,0 %, Shahrixon tumani – 5,9 % va Oltinko'l tumani –5,8 % ga tegishli.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	farqi (+;-)
Jami	3 307	2 260	-1 047
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	536	167	-369
Sanoat	713	489	-224
Qurilish	218	154	-64
Savdo	1 143	953	-190
Tashish va saqlash	86	109	23
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	191	93	-98
Axborot va aloqa	76	60	-16
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	49	66	17
Boshqa faoliyat turlari	295	169	-126


***Ma'lumot uchun:** 2023- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:*




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi (+;-)
Andijon sh.	571	532	-39
Andijon t	286	240	-46
Asaka	264	171	-93
Oltinko'l	166	132	-34
Izboskan	208	123	-85
Shahrixon	280	134	-146
Baliqchi	333	136	-197
Qo'rg'ontepa	198	130	-68

2023- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida -532 tani tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda






2023- yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 9,5 birlikni tashkil etdi.



Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko'ra*




2023- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ulug`nor tumanida 20,9 birlik, Xo'jaobod tumanida 14,7 birlik, Andijon shahrida 13,8 birlik, Bo`ston tumanida 12,9 birlik, Xonobod shahrida 10,4 birlik, Marhamat tumanida 9,5 birlik, Jalaquduq tumanida 9,3 birlik, Baliqchi tumanida 9,2 birlikni tashkil etgan. Shahrixon tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 6,5 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2023- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*




2023- yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan viloyat bo'yicha 9,5 birlikni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich shahar va tumanlar kesimida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanganda pasayish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shaharda 11,1 birlikka, Xonobod shahrida 7,3 birlikka, Asaka tumanida 6,2 birlikka kamaygan . Buloqboshi tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 3,0 birlikka pasaygan.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda).*



har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik biznes subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda*
(2023- yilning yanvar-iyunida)



Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda) yanvar-iyun holatiga ko'ra*

Eng yuqori ko'rsatkich

- Ulug'nor tumani
- 20,9 birlik

O'rtacha ko'rsatkich

- Baliqchi tumani
- 9,2 birlik

Eng past ko'rsatkich

- Shahrixon tumani
- 5,3 birlik

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, (yanvar-iyun holatiga ko'ra, % da)

2023- yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 66,8 % ni tashkil qildi. (2022- yilning yanvar-iyunida 66,4 %).

YAHMning o'tgan yilga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan izohlanadi.

69,8 %

2021 - Y.

66,4 %

2022- Y.


66,8 %

2023- Y.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi

(umumiy hajmiga nisbatan % da) yanvar-iyun holatiga ko'ra



2023- yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Andijon viloyati	23,3	98,2	65,4	70,2
<i>shaharlar:</i>				
Andijon sh.	27,8	96,0	66,2	52,6
Xonobod sh.	34,8	95,1	68,2	66,4
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	64,6	100,0	71,1	84,6
Andijon	87,5	100,0	70,8	53,2
Baliqchi	77,1	100,0	68,7	77,0
Bo‘ston	52,9	100,0	61,7	60,9
Buloqboshi	100,0	100,0	60,4	97,8
Jalaquduq	65,2	92,1	69,3	64,3
Izboskan	100,0	100,0	65,9	62,2
Ulug‘nor	63,0	95,5	61,4	82,8
Qo‘rg‘ontepa	43,8	100,0	54,7	63,9
Asaka	1,9	100,0	63,5	26,8
Marhamat	38,0	100,0	72,9	51,0
Shahrixon	88,9	100,0	56,0	29,0
Paxtaobod	50,3	100,0	56,2	82,1
Xo‘jaobod	58	100,0	69,5	80,3

Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi eng ko‘p:

Sanoatda-

Buloqboshi (100 %),
Izboskan (100 %),
Shahrixon (88,9 %),
Andijon t (87,5 %),
Baliqchi (77,1 %),
Jalaquduq (65,2 %),
Oltinko‘l (64,6 %)
tumanlarida


Qurilishda-

Oltinko‘l (100 %),
Andijon t (100 %),
Baliqchi (100 %)
Bo‘ston (100 %)
Buloqboshi (100 %),
Izboskan (100 %)
Qo‘rg‘ontepa (100 %)
tumanlarida


Xizmatlarda-

Marhamat(72,9 %),
Oltinko‘l (71,1 %),
Andijon t (70,8 %),
Jalaquduq (69,3 %),
Baliqchi (68,7 %),
Xonaobod (68,2 %)
Xo‘jaobod (69,5 %)
tumanlarida

2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 192,7 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 32,3 foizini tashkil etdi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da yanvar-iyun holatiga ko'ra*




2023- yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Izboskan tumanida – 99,9 %, Buloqboishi tumanida – 95,6 %, Marhamat tumanida – 91,4 %, Andijon tumanida – 85,0 %, Ulug'nor tumanida – 81,6 %, Shahrixon tumanida – 79,1 %, Paxtaobod tumanida – 77,9 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 6,0 % ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 243,6 million AQSh dollarini yoki umumiy import hajmining 14,0 foizini tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2023- yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Jalaquduq tumanida – 100 %, Izboskan tumanida – 100 %, Buloqbooshi tumanida – 99,8 %, Shahrixon tumanida – 99,1 %, Ulug'nor tumanida – 98,8 %, Bo'ston tumanida – 84,9 % va Paxtaobod tumanida 82,7 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 0,6 % ni tashkil etdi.




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 708,4 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2023- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, (mlrd so‘m)




Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (1 132,3 mlrd so‘m), Shahrixon tumani (739,2 mlrd so‘m), Baliqchi tumani (655,9 mlrd so‘m), Xo‘jaobod tumani (553,7 mlrd so‘m) va Andijon tumani (535,5 mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Bo‘ston tumanida (114,1 mlrd so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.



2023- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 23,3 foizni tashkil etdi.



2023- yil yanvar-iyun holatiga tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqboshi (100 %), Izboskan (100 %), Shahrixon (88,9 %), Andijon (87,5 %) Baliqchi (77,1 %), Jalaquduq (65,2 %) va Oltinko'1 (64,6 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (1,9 %) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 8 560,3 mlrd so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 92,9 foizini tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,0 foizni tashkil qildi.



2023- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (2 189,1 mlrd so‘m), Shahrixon tumani (1 151,1 mlrd so‘m), Asaka tumani (738,4 mlrd so‘m) va Qo‘rg‘ontepa tumani (605,1 mlrd so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi.




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 4 763,6 mlrd so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 98,2 foizini tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 109,1 foizni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘shish sur‘ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (1 155,4 mlrd so‘m), Andijon tumani (418,3 mlrd so‘m), Shahrixon tumani (253,6 mlrd so‘m), Oltinko‘l tumani (181,9 mlrd so‘m) hamda Paxtaobod tumanlarida (175,2 mlrd so‘m) qayd etildi.


2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 401,4 mlrd soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 65,4 foizini tashkil qildi. 2022- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 105,3 foizga oʻsdi.



2023- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Andijon shahri (2 317,1 mlrd soʻm), Andijon tumani (418,7 mlrd soʻm), Asaka tumani (415,4 mlrd soʻm), Baliqchi tumani (364,3 mlrd soʻm) va Xoʻjaobod (329,6 mlrd soʻm) tumani hissasiga toʻgʻri keladi.




2023- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,4 foizni tashkil etdi. 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 foizni tashkil qildi.


2023- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 82,1 foizni tashkil etgan bo'lib, 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,4 foizni tashkil qildi.



2023- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,8 foizni tashkil etib, bu esa 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 102,3 foizga ko'payishiga olib keldi.



2023- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,2 foizni tashkil etib, 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,1 foizga ko'payish kuzatildi.



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari (tadbirkorlik sub'ektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Chakana savdo bu – oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat.

Ulgurji savdo bu – katta miqdordagi tovarlarni sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

Kichik va o'rta biznes_- mustaqil mulk egaligiga, xo'jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o'z tarmog'ida hukmron mavqe tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznes sub'yektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo'lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko'rsatkichlardan foydalaniladi. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sub'ektlarini aniqlashda korxonada ishlovchilar soni mezon qilib olingan.